

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA YRTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**HUSNIXAT VA UNI O'QITISH METODIKASI
FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR ISHLANMASI**

AMALIY MASHG'ULOT

Guliston – 2007

Mazkur metodik tavsiyalar bakalavriyat yo`nalishi – 5141600 Boshlang`ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish bo`limi talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, unda husnixat darslaridan amaliy mashg`ulotlarning mavzusi, maqsadi va vazifalarini tashkil etish yoritilgan.

Boshlang`ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish bolimida husnixat va uni o`gitish metodikasi fanidan I kursning II semestrda 44 soat amaliy mashg`ulot rejalashtirilgan bo`lib, ushbu metodik qo`llanmada har bir amaliy mashg`ulot mazmuni ochib berilgan.

Tuzuvchi: Sh.Ziyaev
Katta o`qituvchi G.Mamatova
O`qituvchi X.Boqiyeva

Taqrizchi: pedagogika fanlari nomzodi
M.Xudoyberganova

Metodik qo`llanma Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining Ilmiy Kengashida ko`rib chiqilgan va tavsiya etilgan.

2006 yil „____“ dagi _____sonli majlis bayonnomasi

Soʻz boshi

Ushbu metodik qoʻllanma boshlangʻich taʼlim fakulteti 1 kurs talabalariga mʼljallangan boʻlib, oʻz ichiga 22 ta amaliy mashgʻulotni qamrab olgan.

Mazkur amaliy mashgʻulotlar talabalarning husnixat va uni oʻqitish metodikasi fanidan harf elementlari, harflarning shaklini grafik jihatdan toʻgʻri yozish malakalarini mustahkamlash, boshlangʻich sinflarda husnixat darslarini tashkil etish va olib borish metodikasi bilan talabalarni ?urollantirish uchun yordam beradi.

Boshlanʻich taʼlim va sport, tarbiyaviy ish yoʻnalishi I kurs 2 semestrda husnixat va uni oʻqitish metodikasi fanidan 44 soat amaliy mashgʻulot rejalashtirilgan.

Husnixat va uni oʻqitish metodikasi fanidan amaliy mashgʻulotlar mavzular mazmuni va unga ajratilgan soatlar.

№	Mavzular	Ajratilgan soatlar
1.	Oʻquv qurollari va materiallari bilan tanishtirish	2
2.	Yozma kichik harf elementlari	2
3.	Ilmoq elementli kichik harflar	2
4.	Halqali kichik harflar guruhi	4
5.	Yarim oval elementli kichik harflar	4
6.	Toʻliq oval elementli kichik harflar	4
7.	Kichik harf birikmalari	2
8.	Yozma bosh harflarni yozish	2
9.	Bosma kichik harflar	2
10.	Bosma katta harflar	2
11.	1-2-sinflarda rejalashtirish	2
12.	3-4-sinflarda rejalashtirish	2
13.	Bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash	2
14.	Bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash	2
15.	Matematik raqamlar ustida ishlash	2
16.	Soʻz va gaplar yozish	4
17.	Matnlar yozishni mashq qilish.	4
	Jami	44

1-AMALIY MASHGʻULOT

MAVZU: OʻQUV QUROLLARI VA MATERIALLARI BILAN TANISHTIRISH (2 SOAT)

MAQSAD: Talabalarga husnixat darslarida foydalaniladigan oʻquv qurollari va materiallari bilan tanishtirish, ularga qoʻyilgan gigienik talablar va ulardan toʻgʻri foydalanish yoʻllari haqida maʼlumot berish.

Jihozlanishi: oʻquv qurollari va materiallari tasvirlangan koʻrgazma, xattaxta, rangli boʻrlar, daftarlar.

Dars metodlari: suhbat, amaliy ishlash.

Mashgʻulot rejasi:

Oʻquv qurollari va materiallari bilan umumiy tanishtirish.
Yozuv ruchkasi va unga qoʻyilgan talablar.
Yozuv daftari va unga qoʻyilgan talablar.
Xattaxta, boʻr va unga qoʻyilgan talablar.

Mashg'ulot mazmuni:

O'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatishda, ularda husnixat malakalarini hosil qilishda yozuv qurollari va materiallarining sifati katta rol o'ynaydi.

Talabalarga chiroyli husnixat bilan yozishga erishishda yozuv qurolining ahamiyatini tushuntirish. Sharikli ruchkalarining turlarini tahlil qilish.

Ruchkani barmoq orasida ushlashni mashq qilish. qoidalarini eslab qolish: 1,5-2smga teng bo'lishi shart.

Yozuv daftari va unga qo'yilgan talablarni tahlil qilish. har bir sinfda ishlatiladigan daftarlarga qo'yiladigan talablarni alohida ko'rib chiqish.

1-sinf: yozuv yo'li – 4mm

bosh harflar uchun – 8mm

2-4-sinf: yozuv yo'li – 8mm

kichik harflar uchun – 3mm

bosh harflar uchun - 6mm

1-sinfda o'quvchi daftariga sana va oy yozdiriladi. Xat boshiga amal qilishga o'rgatiladi, daftar hoshiyasi bo'lishi shart. Daftarga sarlavha yozdirilganda, sarlavha va matn orasida satr qoldirilmaydi.

Xattaxtaga qo'yiladigan talablar tahlil qilish: xattaxta qora va to'q yashil bo'lishi shart. Boshlang'ich sinflarda foydalaniladigan xattaxta uch qismdan iborat bo'lishi shart. Boshlang'ich sinflarda foydalaniladigan xattaxta uch qismdan iborat bo'lishi kerak.

Savol va topshiriqlar:

O'quv qurollari va materiallariga nimalar kiradi?

Yozuv ruchkasiga qanday talabalar qo'yiladi?

Yozuv daftariga qanday talabalar qo'yiladi?

Xattaxtaga qanday talabalar qo'yiladi?

O'quv qurollari va materiallaridan to'g'ri foydalanish uchun ko'rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish.,T.,1996

2. Y.Abdullaev .Hamrohim.,T, 1997.

3. Y.Abdullaev. Sovg'a.T., 1998.

4. Y.Abdullaev, Sh.Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo.T, 2000.

5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun.T., 2006

2-AMALIY MASHG'ULOT.

MAVZU: Kichik harf elementlarini yozish.(2s)

MAQSAD: Talabalardagi xar bir xarf elementlarini grafik jihatdan to'g'ri yozish malakalarini rivojlantirish.

Dars metodlari: suhbat, amaliy ishlash

Jihozlanishi: harf elementlari tasvirlangan kartonlar, xattaxta, husnixat daftari,bor.

Mashg'ulot rejasi:

1.Talabalarni amaliy mashg'ulotga tayyorlash.

2.Talabalarga kichik to'g'ri chiziqli elementini yozdirish.

3.Kichik ilmoqli elementlarni yozish.

4.Kichik halqali elementlarni yozish.

5.Kichik yarim oval va to'liq oval shakllarni yozish

6.Qo'lni uzmaslik mashqini o'tkazish

Talabalarni amaliy mashg'ulotga hozirlash: Partada to'g'ri o'tirish qoidasini eslatish. Daftarni parta ustida 65 qiyalikda joylashtirish, ruchkani 1,5-2 sm yuqoridan ushlashni aytib o'tish.

Talabalarga kichik harf elementlarini soddadan murakkabga tamoyili asosida yozdirish: Kichik to'g'ri tayoqcha elementini xattaxtada namuna ko'rsatish va unga qo'yilgan grafik talablarni eslatish.(qiyalikka e'tibor berish, yozuv yo'lidan chiqib ketmaslik, oradagi masofani to'g'ri saqlash). Talabalarining daftoriga kichik to'g'ri tayoqchani yozdirish. Kichik ilmoq elementlarni yozishni mashq qilish.

Talabalarga xattaxtadagi namunaga qarab daftarlariga nusxa ko'chirtirish.Kichik halqali elementlarni yozishni mashq qilish.

Talabalarga kichik yarim oval va to'liq oval elementlarni grafik jihatdan to'g'ri yozishni mashq qildirish.

Talabalarga yozuv vaqtida harf elementlarini ulashda qo'lni uzmaslik uchun mashq o'tkaziladi. Talabalar mashqni daftarlarida mashq qilib bo'lgach, xattaxtada mashq qildirish.

Savol va topshiriqlar

- 1.harf elementlarini yozishga qo'yiladigan grafik talablar nimalardan iborat?
- 2.harf elementlari ustida ishlash qaysi sinfga to'g'ri keladi?
- 3.harf elementlari uchun ko'rgazma tayyorlang

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish.,T.,1996
2. Y.Abdullaev .Hamrohim.,T, 1997.
3. Y.Abdullaev. Sovg'a.T., 1998.
4. Y.Abdullaev, Sh.Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo.T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun.T., 2006

3-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: Ilmoq elementli kichik harflarni yozish.(2s)

MAQSAD: Talabalarda ilmoq elementli kichik harflarni grafik jihatdan to'g'ri yozish malakalarini shakllantirish.

Dars metodlari: genetik metod, klaster.

Jihozlanishi: Ilmoq elementli kichik harflar tasvirlangan ko'rgazma, husnixat daftari, xattaxta.

Mashg'ot rejasi:

Talabalarni ilmoq elementli kichik harflar guruhi bilan tanishtirish.

Kichik ilmoq elementini yodga olish.

Ilmoq elementli kichik *i* harfini yozishni mashq qilish.

Ilmoq elementli kichik *u* harfini yozishni mashq qilish.

Ilmoq elementli kichik *n* harfini yozishni mashq qilish.

Mashg'ulot mazmuni

Talabalarni amaliy mashg'ulotga hozirlash. Partada o'tirish, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qilish.

Mavzuni e'lon qilish. Ilmoq elementli kichik harflar guruhi bilan tanishtirish.

Talabalarga kichik harflarning ilmoq elementini yodga oldirish. Ilmoq elementli kichik *i* harfini grafik jihatdan to'g'ri yozish talabalarga mashq qildiriladi.Xattaxtada o'qituvchi tomonidan namuna ko'rsatiladi. Talabalar daftarlarida *i* harfini yozishni mashq qildiriladi.

So'ng talabalarga ilmoq elementdan ikkitasini birlashtirish topshirig'i beriladi va bunda qaysi harf hosil bo'lishi so'raladi.

Talabalarga ilmoq elementli *u* harfining yozilish yo'nalishi xattaxtada o'qituvchi tomonidan ko'rsatib beriladi. So'ngra talabalarga *u* harfining shaklini daftarlariga yozish mashq qildiriladi.

Talabalarga kichik to'g'ri tayoqcha va ikki tomonlama ilmoq elementlarni daftarlarida aks ettirish va shu ikkita elementni birlashtirib yozish topshirig'i beriladi. Bu ikki elementdan qaysi kichik harf hosil bo'lishi so'raladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish.,T.,1996
2. Y.Abdullaev .Hamrohim.,T, 1997.
3. Y.Abdullaev. Sovg'a.T., 1998.
4. Y.Abdullaev, Sh.Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo.T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun.T., 2006

4-amaliy mashg'ulot

MAVZU: Halqali kichik harflar guruhi.(4s)

MAQSAD: Talabalarga halqali kichik harflarni grafik jihatdan to'g'ri yozishga o'rgatish. Ulardagi husnixat malakalarini shakllantirish.

Dars metodi: genetik metod, klaster.

Jihozlanishi: halqali kichik harflar tasvirlangan ko'rgazmali qurollar, xattaxta, husnixat daftar.

Mashg'ulot rejasi:

Talabalarni amaliy mashg'ulotga tayyorlash.
husnixat daftarlarida asosiy chiziqdan pastga va yuqoriga chiquvchi halqalarni mashq qildirish.
halqali kichik harflarni avval qismlarga bo'lib, so'ngra to'liq shaklini yozishni mashq qildirish.

Mashg'ulot mazmuni:

Talabalarni amaliy mashg'ulotga hozirlash. Uyga vazifalarni tekshirib, baholash.

Talabalarga halqali harflarni yozdirishdan oldin, pastga va yuqoriga chiquvchi halqali elementni mashq qildirish. Shundan so'ng halqasi yuqoriga chiquvchi harflar guruhi bilan tanishtirish:

l , q , k , b , ch , sh

Yuqoridagi harflarning qismlarini alohida xattaxtada yozib ko'rsatish. Talabalarga ushbu qismlarni birlashtirib, halqali harflarni hosil qilish topshirig'i beriladi. Shundan so'ng husnixat daftarlariga halqali harflarni grafik qoidalarga asosan yozdiriladi. Halqali kichik harflar ishtirokida so'zlar tuzish va husnixat daftariga yozish topshirig'i beriladi.

Husnixat mashqi tugagandan syng talabalarga quyidagi boshqotirma beriladi:

Eniga: 2.Yarim oy bilan narvon, turishibdi yonma-yon.

3.Qarasang u tomonga, O'xshab ketar narvonga.

4.Uni dersiz ham sakkiz, Ammo yoni bir tekis.

Bo'yiga:1.Uni ko'rgan on, Dersiz bu kitob javon.

4.Bir oyoq, qo'l chizasan, Keyin unga o'xshaysan.

6.Qanotini yozgan qush,Narvon oldida oqqush.

Boshqotirma katakchalaridagi harflar topilganidan so'ng, topishmoqlar orqali katakchalar to'ldiriladi. Har bir yozilayotgan harf husnixat hoidalariga mos bo'lishi zarur.

Savol va topshiriqlar:

Halqali harflarga yana qaysi harflarni kiritisa bo'ladi?

Halqasi yuqoriga satr chizig'idan yuqoriga chiquvchi harflar kiradi?

Ushbu harflar uchun ko'rgazmalar tayyorlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o`rgatish.,T.,1996
2. Y.Abdullaev .Hamrohim.,T, 1997.
3. Y.Abdullaev. Sovg`a.T., 1998.
4. Y.Abdullaev, Sh.Yo`ldosheva. Yangi alifbo va imlo.T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun.T., 2006

5-amaliy mashg`ulot

MAVZU: Halqali kichik harflar guruhi.(davomi).(2s)

MAQSAD: talabalarning halqasi pastga tushuvchi harflar guruhidagi harflarni grafik jihatdan to`g`ri yozish malakalarini rivojlantirish.

Dars metodi: genetik metod, klaster.

Jihozlanishi: halqali kichik harflar guruhidagi harflar uchun ko`rgazma, xattaxta, xusnixat daftari, bor.

Mashg`ulot rejasi:

- 1.Talabalarni amaliy mashg`ulotga tayyorlash.
- 2.Husnixat daftarida asosiy chiziqdan pastga tushuvchi halqali harflarni yozishni mashq qildirish
- 3Halqali harflar ishtirok etgan szlar yozishni mashq qilish.

Mashg`ulot mazmuni:

Talabalarning darsga tayyorgarligini tekshirib, ularning uyga berilgan topshiriqlarni qanday bajarishganini tahlil qilib, baholash.

Halqasi satr chizig`idan pastga tushuvchi harflar guruhi bilan tanishish:

j, y, g, g`, f, ng

Shundan so`ng harflarni qatnashtirib, so`zlar yozishni mashq qildirish.

*jiyda, jo`ja, toj
yil, ayol ,toy
gul,gugurt,g`oz, qog`oz, tog`
fil, asfalt,mif
tong,bong,chang kabi.*

So`zlarni yozib bo`lingandan so`ng 4-mashg`ulot bilan 5-amaliy mashg`ulot mazmuni umumlashtiriladi.Darsda faol qatnashgan talabalar baholanadi.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Halqali kichik harflar guruhiga nechta harf kiradi?
 - 2.Boshlang`ich sinflarda halqali kichik harflar qaysi tamoyil asosida o`rgatiladi?
 - 3.Halqali qismi pastga tushuvchi harflar uchun ko`rgazmali qurollar tayyorlang.
- Adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o`rgatish.,T.,1996
2. Y.Abdullaev .Hamrohim.,T, 1997.
3. Y.Abdullaev. Sovg`a.T., 1998.

4. Y. Abdullaev, Sh. Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo. T., 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun. T., 2006

6-amaliy mashg'ulot

MAVZU: Yarim oval elementli kichik harflar. (4s)

MAQSAD: Talabalarining yarim oval elementli kichik malakalarini rivojlantirish.

harflarni grafik jihatdan to'g'ri yozish

Dars metodi: genetik metod, qo'l harakatini mashq qildirish metodi.

Dars jihozlanishi: yarim oval harflar tasvirlangan ko'rgazmali qurollar, xattaxta, husnixat daftari.

Mashg'ulot rejasi:

Talabalarining uy vazifalarini tekshirib, baholash.
Yarim oval elementli harflar guruhidagi harflar ustida mashq qilish.
Yarim oval elementli harflar ishtirokida s'zlar yozishni mashq qildirish.

Mashg'ulot mazmuni:

Talabalarining uyga berilgan husnixat mashqlarini qay tarzda bajarganliklarini tekshirib, baholash.
Harflarning yarim oval elementlarni esga olish. Yarim oval elementli harflar guruhidagi harflar bilan tanishtirish.

x, ch, s,

Yarim oval elementli harflarni husnixat daftariga grafik qoidalarga amal qilgan holda yozdirish. Shundan so'ng ushbu harflarni xattaxtada yozishni mashq qildirish.

Talabalarga ushbu harflar ishtirok etgan so'zlar husnixat bilan yozdiriladi. Yozuv vaqtida yarim oval elementli harflarning grafik jihatdan to'g'ri ulanishiga e'tibor qaratish.

Yarim oval elementli harflar uchun ko'rgazma tayyorlash yuzasidan maslahatlar berish.

Savol va topshiriqlar

1. Yarim oval elementli kichik harflar guruhiga qaysi harflarni kiritish mumkin.
2. Yarim oval elementli kichik harflarning qaysilarida tutashtiruvchi unsuri bor?
3. Yarim oval elementli kichik harflar uchun ko'rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish. T., 1996
2. Y. Abdullaev. Hamroh. T., 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg'a. T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo. T., 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun. T., 2006

7-amaliy mashg`ulot

MAVZU: To`liq oval elementli kichik harflar.(4s)

MAQSAD: Talablarga to`liq oval elementli kichik harflar guruhiga qaysi harflar kirishini o`rgatish.

Dars metodi: genetik, qo`l harakatini mashq qildirish metodi.

Dars jihozi: To`liq oval harflar tasvirlangan kartochkalar, husnixat daftari, xattaxta, ma`ruzalar matni.

Mashg`ulot rejasi:

1. Talabalarni amaliy mashg`ulotga tayyorlash.
2. Husnixat daftariga quyidagi elementlarni yozishni mashq qildirish.
3. To`liq oval elementli harflarni qismlarga bo`lib o`rganib, so`ngra birlashtirish orqali harflarni husnixat qoidalari asosida yozish.

Mashg`ulot mazmuni

Talablarni amaliy mashg`ulotga tayyorlash. Uyga berilgan topshiriqni tahlil qilib baholash.

To`liq oval elementni esga olish va javoda mashq qilish ustida ishlanadi. So`ngra husnixat daftarlarida to`liq oval elementlarni yozish mashqi o`tkaziladi.

o o o o o o

Talabalar mashqni tugatishgach, to`liq oval elementli kichik harflarni husnixat daftarlarida yozish topshirig`i beriladi:

o, o`, a, p, d,

To`liq oval elementli kichik harflar so`zning boshida, o`rtasida, va oxirida ishtirok etgan so`zlar yozishni mashq qilish.

***olma, xolva, bobo
o`rdak, po`lat, obro`
ayiq, sariq, mayna
piyoz, koptok, kanop
dala, odob, ozod*** kabi.

Talabalar ushbu so`zlarni husnixat daftarlariga yozib bo`lishgach, mazkur so`zlardan kichik matn tuzib yozish topshirig`i beriladi.

Dars yakunida to`liq oval elementli kichik harflar uchun ko`rgazma tayyorlash ustida ishlanadi. Mashg`ulotda faol qatnashgan talabalar baholanadi.

Savol va topshiriqlar

To`liq oval elementli kichik harflar guruhiga qaysi harflar kiradi?

To`liq oval elementli kichik harflar guruhidagi qaysi harflarda tutashtiruvchi unsuri yo`q?

Ushbu harflar uchun ko`rgazmalar tayyorlang.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o`rgatish., T., 1996
2. Y. Abdullaev. Hamroh., T., 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg`a. T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo`ldosheva. Yangi alifbo va imlo. T., 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun. T., 2006

8-amaliy mashg`ulot

MAVZU: Kichik harf birikmalari.(2s).

MAQSAD: Talabalarning kichik harf birikmalarini yozuvda grafik jihatdan to`g`ri va chiroyli yozish malakalarini rivojlantirish.

Dars metodi: ritmik usul, nusxa ko`chirish usuli.

Dars jihozi: kichik harf birikmalarining yozuv yo`nalishi ko`rsatilgan ko`rgazma, husnixat daftari, bo`r.

Mashg`ulot rejasi:

1. Talabalarning uy vazifalarini tekshirib baholash.
2. Kichik harf birikmalarini yozishni mashq qilish.
3. Kichik harf birikmalari ishtirokida so`z va gaplar yozishni mashq qilish.

Mashg`ulot mazmuni:

Talabalarning uyga vazifalarini tekshirib baholash. Grafik xatolar ustida ishlash.
Husnixat daftari yozma kichik harf birikmalarini yozishni mashq qildirish.

sh, ch, ng

Kichik harf birikmalari so`zning boshida, o`rtasida, oxirida ishtirok etgan so`zlar yozishni mashq qilish.
(***ng*** harf birikmasi so`zning boshida kelmaydi).

shisha, idish; chelak, chechak, soch; ko`ngil, tong, bong kabi.

Talabalar so`zlarni husnixat daftari yozishni mashq qilishgach, xattaxtada qo`lni uzmasdan yozish mashqi o`tkaziladi. Shundan so`ng ushbu so`zlar ishtirokida gaplar tuzish va ularni husnixat daftari yozish mashqi o`tkaziladi.

Dars yakunida barcha o`rganilgan kichik yozma harflarning guruhlarini takrorlaniladi. Darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Kirill alifbosida nechta harf birikmasi bor edi? Lotin alifbosida nechta?
2. Yozuvda so`zlarni bo`g`in ko`chirishda harf birikmalari qaytarzda ko`chiriladi?
3. Kichik harf birikmalari uchun ko`rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o`rgatish.,T.,1996
2. Y.Abdullaev .Hamrohim.,T, 1997.
3. Y.Abdullaev. Sovg`a.T., 1998.
4. Y.Abdullaev, Sh.Yo`ldosheva. Yangi alifbo va imlo.T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun.T., 2006

9-amaliy mashg'ulot

MAVZU: Yozma bosh harflarni yozish.

MAQSAD: Talabalarda lotin yozuvidagi yozma bosh harflarni grafik jihatdan to'g'ri yozish malakalarini shakllantirish.

Dars metodi: genetik metod, klaster.

Dars jihozi: yozma bosh harflarning guruhlar bo'yicha ishlangan ko'rgazma, husnixat daftari, xattaxta.

Mashg'ulot rejasi:

1. Talabalarining uy ishlarini tekshirib, baholash.
2. Lotin yozuvidagi yozma bosh harflarni guruhlash va har bir guruhdagi harflarni qismlarga ajratish.
3. Yozma bosh harflarni husnixat daftariga yozishni mashq qilish.
4. Bosh harflar ishtirokida so'z va gaplar yozishni xattaxtada mashq qilish.

Mashg'ulot mazmuni:

Talabalarining uy ishlari tahlil qilinib, baholash. Grafik xatolar ustida ishlash. Talabalarni amaliy mashg'ulotga hozirlash.

Lotin alifbosidagi bosh harflarni qismlarining o'xshashligi bo'yicha guruhlash va qismlarga ajratish.

1-guruh: U,L,J,I
2-guruh: M,Q,K,N,D,A
3-guruh: O,O',H,X,Ch
4-guruh: E,S,Sh,Z
5-guruh: V,G,G',Y
6-guruh: T,F,B,P,R

Har bir guruhdagi harflarni elementlarga ajratib, ko'rsatib berish topshirig'i ustida ishlash.

Yozma bosh harflarni husnixat daftariga grafik qoidalar asosida yozishni mashq qilish.

Yozma bosh harflar ishtirokida so'z va gaplarni imlo qoidasi asosida yozishni mashq qilish. Yozma bosh harflarning kichik yozma harflardan farqini tahlil qilish. Yozma bosh harflarni tutashtiruvchi unsuriga qarab guruhlariga ajratish. Dars yakunida darsda faol qatnashgan talabalarni baholash.

Savol va topshiriqlar:

1. Yozma bosh harflar qismlarining o'xshashligiga ko'ra nechta guruhga bo'linadi?
2. Yozuv daftarida bosh harflarning bo'yi necha santimetrdan iborat bo'lishi kerak?
3. Tutashtiruvchi unsuri bor harflarga qaysilar kiradi?
4. Yozma bosh harflar uchun ko'rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish., T., 1996
2. Y. Abdullaev. Hamroh., T., 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg'a. T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo. T., 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun. T., 2006

10-amaliy mashg'ulot

MAVZU: Bosma kichik harflar.(2s)

MAQSAD: Talabalarining bosma kichik harf shakllarini yozish malakalarini rivojlantirish. Yozma va bosma kichik harflarni qiyosiy o'rganish.

Dars metodi: genetik metod, harf shaklini tahlil qilish metodi.

Dars jihozi: bosma kichik harflar tasvirlangan ko'rgazma, xattaxta.

Mashg'ulot rejasi:

1. Talabalarining uy vazifalarini tekshirib, baholash.
2. Bosma kichik harflarni qismlarining o'xshashligi asosida guruhlariga ajratish.
3. Kichik bosma va yozma harf shakllarini qiyosiy tahlil qilish.
4. Talabalarni xattaxtada mashq qildirish.

Mashg'ulot mazmuni:

Talabalarining uy ishlarini tahlil qilib, baholash. Grafik xatolar ustida ishlanadi. Shundan so'ng lotin alifbosidagi kichik bosma harf shakllari bilan tanishtiriladi. Ular qismlarining o'xshashligi asosida guruhlanadi:

- 1-guruh: i, l,**
- 2-guruh: a, o, y, e, g, ?**
- 3-guruh: b, d, p, ?**
- 4-guruh: f, t,**
- 5-guruh: ?, n, u, m, k, x**
- 6-guruh: j, t, y**
- 7-guruh: sh, ch, ng**

Lotin alifbosidagi kichik bosma harflar shaklini kichik yozma harflar shakli bilan qiyoslash, farqli tomonlarini o'rganish.

Kichik bosma harflarni husnixat daftarida yozishni mashq qilish. Kichik bosma harflardan so'zlar tuzib, xattaxtada yozishni mashq qilish.

Bosma kichik harflar uchun kesma harflar tayyorlash topshirig'i ustida ishlash. Dars yakunida mashg'ulotda faol qatnashgan talabalarni baholash.

Savol va topshiriqlar:

1. Kichik bosma harflarni qismlarining o'xshashligiga ko'ra nechta guruhga ajratish mumkin?
2. Bosma kichik harf shakllarining yozma kichik harf shakllaridan farqi nimada?
3. Bosma kichik harflar uchun ko'rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish., T., 1996
2. Y. Abdullaev. Hamroh., T., 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg'a., T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo., T., 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun., T., 2000

11-amaliy mashg'ulot

MAVZU: Bosma katta harflar.(2s)

MAQSAD: Talabalarga harflarning katta bosma shakllarini qoida asosida yozishga o'rgatish. Harflarning yozma va bosma shakllarini qiyosiy tahlil qilish.

Dars metodi: genetik metod, harf shaklini tahlil qilish metodi.

Dars jihozi: bosma katta harf shakllari tasvirlangan ko'rgazma, xattaxta bo'r.

Mashg'ulot rejasi:

1. Talabalarni katta bosh harflarning guruhlari bilan tanishtirish.
2. Harflarning yozma va bosma katta shakllarini qiyosiy tahlil qilish.
3. Talabalarni xattaxtda mashq qildirish.

Mashg'ulot mazmuni:

Talabalarining uy ishlarini tahlil qilib, baholash. Grafik xatolar ustida ishlanadi. Shundan so'ng lotin alifbosidagi katta bosma harf shakllari bilan tanishtiriladi. Ular qismlarining ўxshashligi asosida guruhlanadi.

Lotin alifbosidagi katta bosma harflar shaklini katta yozma harflar shakli bilan qiyoslash, farqli tomonlarini o'rganish.

Katta bosma harflarni husnixat daftari yozishni mashq qilish. Katta bosma harflardan so'zlar tuzib, xattaxtda yozishni mashq qilish.

Bosma katta harflar uchun kesma harflar tayyorlash topshirig'i ustida ishlash. Dars yakunida mashg'ulotda faol qatnashgan talabalarni baholash.

Savol va topshiriqlar:

1. Katta bosma harflarni qismlarining o'xshashligiga ko'ra nechta guruhga ajratish mumkin?
2. Bosma katta harf shakllarining yozma kichik harf shakllaridan farqi nimada?
3. Bosma katta harflar uchun ko'rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish., T., 1996
2. Y. Abdullaev. Hamroh., T., 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg'a., T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo., T., 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun., T., 2006

12-amaliy mashg'ulot

MAVZU: 1-2-sinflarda rejalashtirish.(2s)

MAQSAD: Talabalarga 1-2-sinflarda husnixat darslarini rejalashtirishga o'rgatish.

Dars metodi: suhbat, genetik metod.

Dars jihozi: husnixat darslarini rejalashtirish jadvali, o'quv materiallari, 1-2-sinf husnixat daftarlari.

Mashg'ulot rejasi:

1. Talabalarining husnixat darslarini rejalashtirish yuzasidan olgan bilimlarini tekshirish.
2. Husnixat darslarini rejalashtirishga qo'yilgan talablar ustida ishlash.
3. 1-2-sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish.

Mashg'ulot mazmuni:

Talabalarning husnixat darslarini rejalashtirish yuzasidan olgan bilimlarini tekshirish uchun savol-javob o'tkaziladi:

1. Husnixat darslarini yillik rejalashtirish nima deb ataladi?
2. 1-2-sinflarda husnixat darslari uchun necha soat vaqt ajratiladi?
3. Dastur b'yyicha 1-2-sinflarda husnixat darslarining mazmuni nimadan iborat bo'ladi?

Shundan so'ng husnixat darslarini yillik rejalashtirishga qo'yiladigan talablar esga olinadi va taqvim reja jadvali bilan talabalar tanishtiriladi.

№	Mavzular mazmuni	O'quv materiali	soat	vaqti	izoh

Talabalar taqvim reja jadvali bilan tanishib bo'lishgach, ularga 1-2-sinf husnixat daftarlaridagi o'quv material va husnixat tamoyillari asosida yillik taqvim rejalarni tuzish topshirig'i ustida ishlash.

Talabalar topshiriqni bajarib bo'lishgach, tuzgan taqvim rejalari tahlil qilinib baholanadi.

Savol va topshiriqlar

1. 1-sinflarda husnixat darslari necha soatni tashkil etadi?
2-sinfda-chi?
2. Husnixat darslarini rejalashtirishda qaysi tamoyillarni hisobga olish lozim?
3. 1-2-sinflarda husnixat darslarining namunaviy taqvim rejasini ishlab chiqing.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish., T., 1996
2. Y. Abdullaev. Hamroh., T., 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg'a., T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo., T., 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun., T., 2000

13-amaliy mashg'ulot

MAVZU: 3-4-sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish.(2s)

MAQSAD: Talabalarga 3-4-sinf husnixat darslarini rejalashtirishni amalda o'rgatish.

Dars metodi: suhbat, genetik metod.

Dars jihozi: jadvali, o'quv materiallari, husnixat daftarlari.

Mashg'ulot rejasi:

1. Husnixat darslarini rejalashtirishga qo'yilgan talablar ustida ishlash.
2. 3-sinflarda husnixat dars uchun o'quv material tanlash va rejalashtirish.
3. 4-sinflarda husnixat darsi uchun o'quv material tanlash va rejalashtirish.

Mashg'ulot mazmuni:

Husnixat darslarini yillik rejalashtirish uchun qo'yiladigan talablar esga olinadi.

3-sinfda o'quvchilarning yozuv ko'nikmalari rivojlangani uchun o'quv materiallari sifatida asosan so'z, gaplar, kichik matnlar tanlanishi uqtiriladi. Rejalashtirishda shu jihatlari hisobga olinishi eslatiladi.

Talablarga 3-sinf husnixat daftariidagi o'quv materiallari mazmunini 33-34 soatga taqsimlash topshirig'i beriladi. Shundan so'ng mavzularning o'rganilish sanasini belgilab chiqiladi.

Taqvim rejada har bir dars uchun o'quv materiallari aniqlanadi. Talabalar topshiriqni bajarib bo'lishgach, 4-sinf husnixat darslarini ham shu tariqa yillik rejalashtirish topshirig'i beriladi.

Topshiriq bajarilgach, tahlil qilinib baholanadi.

Savol va topshiriqlar

1. 3-sinflarda husnixat darslari necha soatni tashkil etadi?
4-sinfda-chi?
2. Husnixat darslarini rejalashtirishda qaysi tamoyillarni hisobga olish lozim?
3. 3-4-sinflarda husnixat darslarining namunaviy taqvim rejasini ishlab chiqing.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish., T., 1996
 2. Y. Abdullaev. Hamroh., T., 1997.
 3. Y. Abdullaev. Sovg'a., T., 1998.
 4. Y. Abdullaev, Sh. Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo., T., 2000.
 5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun., T., 2006
- 14-amaliy mashg'ulot

MAVZU: Bir soatlik husnixat darsini rejalashtirish. (2s)

MAQSAD: Talabalarga bir soatlik husnixat darsining ishlanmasini tayyorlashni amaliy o'rgatish.

Dars metodi: aqliy hujum, klaster, suhbat.

Dars jihozi: bir soatlik husnixat darsining loyihasi, husnixat daftarlari, xattaxta.

Mashg'ulot rejasi:

1. Talabalarni bir soatlik husnixat darsining tuzilishi bilan tanishtirish.
2. Bir soatlik husnixat darsiga o'quv materiallari tanlash.
3. Aniq bir mavzu uchun dars ishlanmasi tayyorlash.

Mashg'ulot mazmuni:

Talabalar bilan har bir darsni o'tishdan oldin uni yaxshilab rejalashtirish, uning maqsad va vazifalarini belgilash yuzasidan suhbat o'tkaziladi. (Bu suhbat «aqliy hujum» metodidan foydalanib, o'tkaziladi).

Talabalarga 1-2-sinf taqvim rejasidan bironi mavzuni tanlash topshirig'i beriladi. Shundan so'ng darsning maqsad va vazifalarini belgilash ustida ishlanadi. Talabalar mavzuning maqsad va vazifalarini aniqlashgach, dars uchun lozim bo'lgan ko'rgazmali qurollar va o'quv materiallari tanlash topshirig'ini bajarishadi. Keyin darsning turi va metodlari belgilab olinadi.

Darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan vazifalar aniqlanadi:

I. Darsning tashkiliy qismida amalga oshiriladigan vazifalar belgilanadi.

II. Uyga vazifa sifatida berilgan topshiriqlar ustida ishlash jarayoni yoritiladi.

- III. Yangi mavzuning bayoni beriladi.
- IV. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayoni yoritib beriladi.
- V. Uyga vazifa belgilab beriladi.

Talabalar bir soatlik dars ishlanmasini tuzib bo'lishgach, topshiriq tekshirilib baholanadi. Xato-kamchiliklar ustida ishlanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Bir soatlik darsni rejalashtirishda nimalarga ahamiyat beriladi?
2. Husnixat darslaridagi tashkiliy jarayon qanday amalga oshiriladi?
3. Husnixat darsining bir soatlik ishlanmasini pedagogik texnologiya asosida loyihalashtiring.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish., T., 1996
2. Y. Abdullaev .Hamrohim., T, 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg'a. T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo'ldosheva. Yangi alifbo va imlo. T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun. T., 2000

15-amaliy mashg'ulot

MAVZU: Bir soatlik darsni tashkil etish. (2s)

MAQSAD: Talabalarga bir soatlik Husnixat darsini tashkil etish jarayonini o'rgatish.

Dars metodi: suhbat, guruhlarda ishlash metodi.

Dars jihozi: harflar uchun k'rgazmalar, xattaxta, husnixat daftarlari.

Mashg'ulot rejasi:

1. Talabalarning uyga berilgan vazifalarini tekshirish.
2. Har bir talabaning dars namunasini namoyish etishi.
3. Darslarni tahlil qilish.

Mashg'ulot mazmuni:

Talabalarning uyda tuzib kelgan dars ishlanmalarini tekshirish. Har bir talabaga tuzib kelgan dars ishlanmasi asosida dars fragmentini ko'rsatib berish topshirig'i beriladi. Dars namunasini namoyish etuvchi talabadan tashqari qolgan talabalardan dars yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qilish uchun 3-guruhdan iborat ishchi guruhlar tuziladi. Har bir guruhga vazifalar taqsimlanadi:

1-guruh: darsning yutug'ini bayon qilish.

2-guruh: darsda yo'l qo'yilgan xatolarni bayon qilish.

3-guruh: dars yuzasidan umumiy xulosani bayon qilish.

Talabalar fikr-mulohazalari asosida har bir talabaning o'tkazgan darsi baholanib boriladi.

Dars so'ngida husnixat darsini tashkil qilish jarayoni muhokama qilinadi. Darsni yuqori saviyada tashkil etgan talabalar baholanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Husnixat darslarini tashkil etishda qanday gigienik talablar bajarilishi kerak?
2. Husnixat darslarini uyushtirishda qaysi tamoyillarga asoslaniladi?
3. Chiroyli yozuvga o`rgatishda qaysi metodlar samarali hisoblanadi?

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o`rgatish., T., 1996
2. Y. Abdullaev .Hamrohim., T, 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg`a. T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo`ldosheva. Yangi alifbo va imlo. T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun. T., 2000

16-amaliy mashg`ulot

MAVZU: Matematik raqamlarni yozish.(2s)

MA?SAD: Talabalarni matematik raqamlar bilan tanishtirish. Ularning matematik raqamlar va amallarni grafik jihatdan to`g`ri yozish malakalarini rivojlantirish.

Dars metodi: genetik metod.

Dars jihozi: matematik raqamlar va amallar tasvirlangan ko`rgazma, xattaxta.

Mashg`ulot rejasi:

Talabalarni matematik raqamlarning guruhi bilan tanishtirish va husnixat daftarida yozishni mashq qilish. Arifmetik amallar(qo`shish, ayirish, bo`lish, ko`paytirish) ini qoidaga muvofiq yozishni mashq. Matematik raqamlarni xattaxtada yozishni mashq qildirish.

Mashg`ulot mazmuni:

Talabalarni matematik raqamlar guruhi bilan tanishtirish. Ularning yozilish qoidasi bilan tanishtirish. Matematik raqamlarni o`xshash qismlari orqali guruhlash ustida ishlash:

1-guruh: 1, 4, 7

2-guruh: 2, 5

3-guruh: 6, 8, 9

Talabalarga matematik raqamlarni qismlarga ajratish topshirig`i beriladi. Xattaxtada matematik raqamlarni yozish tartibi ko`rsatiladi. Shundan so`ng arifmetik amallarni husnixat bilan yozish mashqi o`tkaziladi.

$$1 + 4 = 5 \quad 7 - 2 = 9 \quad 6 + 8 = 14$$

$$7 - 1 = 6 \quad 5 - 2 = 3 \quad 9 - 4 = 5$$

Talabalar husnixat mashqini tugatishgach, ularning ishlari baholanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Matematik raqamlarning birinchi guruhiga qaysilar kiradi?
2. Matematik raqamlarni husnixat bilan yozish qaysi sinfda o`rgatiladi?
3. Matematik raqamlar uchun ko`rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Q. Abdullaeva va boshqalar. Savod o`rgatish., T., 1996
2. Y. Abdullaev .Hamrohim., T, 1997.
3. Y. Abdullaev. Sovg`a. T., 1998.
4. Y. Abdullaev, Sh. Yo`ldosheva. Yangi alifbo va imlo. T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun. T., 2000

17-amaliy mashg`ulot

MAVZU: So`z va gaplar yozishni mashq qilish.

MAQSAD: Talabalarda so`zlarni yozishda harflarni grafik jihatdan to`g`ri ulash, gaplarda so`zlar orasidagi masofani to`g`ri saqlash malakalarini shakllantirish.

Dars metodi: genetik metod, analitik metod.

Dars jihozi: so`z va gaplar yozilgan k`rgazma, xattaxta, husnixat daftari, bo`r.

Mashg`ulot rejasi:

1. Talabalarni darsga hozirlash.
2. Talabalarni husnixat daftarlariga so`z, gaplarni grafik qoidalarga asosan yozishni mashq qilish.
3. Talabalarga xattaxtada so`z va gaplar yozishni mashq qilish.

Mashg`ulot mazmuni:

Talabalarining darsga tayyorgarligini tekshirish. O`tilgan mavzularni mustahkamlash.
Talabalarga alifbo tartibida so`zlar yozishni mashq qildirish. Shu so`zlardan foydalanib gaplar tuzish va husnixat daftariga yozish.

Talabalarining husnixat daftarlariga yozgan mashqlarni tekshirib, aniqlangan xato-kamchiliklarni tahlil qilish.

Talabalarni xattaxtada so`z va gaplarni husnixat qoidasi asosida yozishni mashq qildirish. Xatolarni tahlil qilish. Eng yaxshi yozilgan husnixat namunalarini baholash.

Savol va topshiriqlar

1. So`z va gaplarni yozishda qanday qoidalarga amal qilishadi?
2. So`z, gaplar ustida nechanchi sinflarda ishlanadi?
3. So`z va gaplarni husnixat qoidasi asosida yozish bo`yicha ko`rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o`rgatish.,T.,1996
2. Y.Abdullaev .Hamrohim.,T, 1997.
3. Y.Abdullaev. Sovg`a.T., 1998.
4. Y.Abdullaev, Sh.Yo`ldosheva. Yangi alifbo va imlo.T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun.T., 2000

18-amaliy mashg`ulot.(4s).

MAVZU: Matnlar yozishni mashq qilish.(4s).

MAQSAD: Talabalarning matnlarni husnixat qoidalari asosida yozish malakalarini rivojlantirish.

Dars metodi: suhbat, genetik metod.

Dars jihozi: husnixat qoidasiga muvofiq yozilgan matn ko`rgazma, xattaxta, husnixat daftari.

Mashg`ulot rejasi:

1. Matn yozish qoidasini esga olish.
2. Ko`rgazmadagi namunaga qarab matnni nusxa ko`chirish.
3. Erkin mavzuga oid kichik matn tuzish va husnixat qoidasiga muvofiq yozish.

Mashg`ulot mazmuni:

Talabalar bilan matnni yozishga qo`yilgan talablarni esga olish. Ko`rgazmadagi matnni husnixat daftariga nusxa ko`chirishni mashq qildirish. Yozilgan matnlarni tahlil qilish.

Erkin mavzuda matn tuzish va husnixat daftariga yozishni mashq qilish. Eng yaxshi yozilgan husnixat namunasini aniqlash va rag`batlantirish.

O`rganilgan mavzularni mustahkamlab, umumlashtirish.

Savol va topshiriqlar

1. Matnni yozishga qanday talablar qo`yiladi?
2. Matn ustida ishlash nechanchi sinfga to`g`ri keladi?
3. Chiroyli yozuv qoidasi asosida matn uchun ko`rgazma tayyorlang.

Adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o`rgatish.,T.,1996
2. Y.Abdullaev .Hamrohim.,T, 1997.
3. Y.Abdullaev. Sovg`a.T., 1998.
4. Y.Abdullaev, Sh.Yo`ldosheva. Yangi alifbo va imlo.T, 2000.
5. Husnixat daftari. 1-4-sinf uchun.T., 2000